niy birliklar va ularning qo‘llanish xususiyatlari aniqlanadi, keyin kommunikativ vaziyat hamda yashirin ma’nolar tahlil qilinadi, shundan so‘ng matndan kelib chiqadigan inferensial bog‘lanishlar va xulosalar rekonstruksiya qilinadi. Yakuniy bosqichda esa olingan natijalarning normativ-huquqiy talqin bilan aloqasi baholanadi.

Shunday qilib, lingvo-mantiqiy ekspertiza lingvistik ekspertizaga muqobil yondashuv sifatida emas, balki uning metodologik imkoniyatlarini kengaytiruvchi yo‘nalish sifatida qaralishi mumkin. Bu yondashuv matnning eksplitsit mazmuni bilan undan kelib chiqadigan implitsit ma’nolar o‘rtasidagi munosabatni izchil tahlil qilish imkonini beradi.

Xulosa va takliflar. Sud-lingvistik ekspertiza bugungi kunda mualliflik identifikatsiyasi, terminologik ekspertiza, semantik tavsif hamda konfliktli matnlarni tahlil qilishda samarali qo‘llanib kelmoqda. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, ayrim kommunikativ hodisalarni izohlashda matnning leksik va grammatik tarkibini tavsiflashning o‘zi yetarli bo‘lmay qoladi. Implikatura, inferensiya, yashirin ayblov va argumentativ ta’sir kabi hodisalar, ko‘pincha, matnning pragmatik hamda mantiqiy qatlamlarida shakllanadi.

Normativ-huquqiy matnlar misolida ham norma matnida ifodalangan mazmun bilan undan kelib chiqadigan talqin o‘rtasida tafovut yuzaga kelishi mumkinligi kuzatildi. Soliq kodeksining ayrim moddalari tahlili huquqiy xulosa, ko‘pincha, matnning bevosita mazmunigagina emas, balki talqin jarayonida shakllanadigan inferensial bog‘lanishlarga ham tayanishini ko‘rsatdi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, nizoli matnlarni ekspertizadan o‘tkazishda implikatura va inferensiyani aniqlash mezonlarini yanada takomillashtirish maqsadga muvofiq. Normativ-huquqiy matnlarni tahlil qilishda esa lingvistik tavsif bilan bir qatorda, pragmatik va mantiqiy tahlil usullaridan ham foydalanish foydali bo‘lishi mumkin. Lingvo-mantiqiy ekspertiza bilan bog‘liq metodologik masalalarni chuqurroq ishlab chiqish ushbu yo‘nalishdagi keyingi tadqiqotlarning muhim vazifalaridan biri bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Баранов А.Н. Лингвистическая экспертиза текста: теория и практика. Учебное пособие, Москва, “Флинта: Наука”, 2007, 592 с.

(2). Галяшина Е.И. Основы судебной лингвистической экспертизы. Москва, “Стэлс”, 2003, 236 с.

(3). Grice H.P. Logic and Conversation. Syntax and Semantics. vol. 3, Speech Acts. Ed. by P. Cole, J.L. Morgan. New York, Academic Press, 1975, 41–58 p.

(4). Coulthard M., Johnson A. An Introduction to Forensic Linguistics: Language in Evidence. London, Routledge, 2007, 304 p.

(5). Musulmonova K. O‘zbek yozma matnlarida lingvistik ekspertiza o‘tkazish maqsadi va asoslari. Wissenschaftliche Ergebnisse und Errungenschaften. München, 2020, 97–99-betlar.

(6). Najmiddinova N. Haqorat mazmunidagi matnlar bo‘yicha lingvistik ekspertiza o‘tkazish jarayoni. “O‘zbekiston sud ekspertizasi”, 2023, 2-son, 42-bet.

(7). Shuy R.W. Language Crimes: The Use and Abuse of Language Evidence in the Courtroom. Oxford, Blackwell, 1993, 227 p.

(8). Svartvik J. The Evans Statements: A Case for Forensic Linguistics. Göteborg, University of Göteborg Press, 1968, 46 p.

(9). O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi (Lex.uz). 2020, Kirish rejimi: https://lex.uz/docs/4674902 (murojaat sanasi: 16.02.2026).

Abdullayeva Muslimaxon Ubaydulla qizi (Namangan davlat Pedagogika instituti:
E-mail: abdullayevamuslima34@gmail.com)

O‘ZBEK MULOQOT DISKURSIDA PRAGMATIK BIRLIKLARNING PRESUPPOZITSIYA VA IMPLIKATURA HOSIL QILISH MEXANIZMLARI

Annotatsiya. *Maqolada o‘zbek muloqot diskursida pragmatik birliklarning presuppozitsiya va implikatura hosil qilish mexanizmlari tahlil qilindi. Tadqiqotda “yana”, “ham”, “axir”, “shekilli”, “balki”, “mayli”, “demak”, “bir” kabi birliklarning yashirin ma’no yaratishdagi o‘rni deskriptiv, kontekstual va diskursiv-pragmatik metodlar asosida izohlandi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, presuppozitsiya avvaldan ma’lum deb qabul qilinadigan axborotni, implikatura esa bevosita aytilmagan, biroq vaziyat orqali anglanadigan ma’noni shakllantiradi. Tadqiqotning amaliy ahamiyati o‘zbek nutqiy odobi, bilvosita ifoda va kommunikativ niyatni tahlil qilish mezonlarini aniqlashdadir.*

Kalit so‘zlar: *pragmatik birlik, presuppozitsiya, implikatura, diskurs, kontekst, yashirin ma’no, nutqiy odob.*

Абдуллаева Муслимахон Убайдулла кизи (Наманганский государственный педагогический институт: E-mail: abdullayevamuslima34@gmail.com)

МЕХАНИЗМЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПРЕСУППОЗИЦИИ И ИМПЛИКАТУРЫ В УЗБЕКСКОМ КОММУНИКАТИВНОМ ДИСКУРСЕ

Аннотация. *В статье анализируются механизмы формирования пресуппозиции и импликатуры прагматическими единицами в узбекском коммуникативном дискурсе. На материале единиц "yana", "ham", "axir", "shekilli", "balki", "mayli", "demak", "bir" раскрываются способы выражения скрытого смысла. Результаты показывают, что пресуппозиция актуализирует предполагаемую информацию, а импликатура формируется через контекст и речевую ситуацию. Практическая значимость исследования связана с описанием речевого этикета, косвенной номинации и коммуникативного намерения в узбекском языке.*

Ключевые слова: *прагматическая единица, пресуппозиция, импликатура, дискурс, контекст, скрытый смысл, речевой этикет.*

Abdullayeva Muslimakhon Ubaydulla qizi (Namangan State Pedagogical Institute; E-mail: abdullayevamuslima34@gmail.com)

MECHANISMS OF PRESUPPOSITION AND IMPLICATURE FORMATION IN UZBEK COMMUNICATIVE DISCOURSE

Annotation. *The article examines the mechanisms by which pragmatic units form presupposition and implicature in Uzbek communicative discourse. Units such as "yana", "ham", "axir", "shekilli", "balki", "mayli", "demak" and "bir" are analyzed through descriptive, contextual and discourse-pragmatic methods. The findings show that presupposition activates assumed information, while implicature conveys meanings inferred from context. The practical value of the study lies in clarifying Uzbek speech etiquette, indirect expression and communicative intention.*

Keywords: *pragmatic unit, presupposition, implicature, discourse, context, implicit meaning, speech etiquette.*

Kirish. Pragmalingvistika nutqning faqat grammatik shaklini emas, balki muloqot jarayonida yuzaga keladigan yashirin ma'no, adresant niyati va adresat talqinini o'rganadi. O'zbek muloqotida ayrim birliklar gap tarkibida kichik ko'rinsa-da, ular avvalgi axborotni eslatish, bahoni yumshatish, tanbehni bilvosita berish yoki iltimosni odob doirasida ifodalash kabi muhim vazifalarni bajaradi. Masalan, "Yana kech qoldingizmi?" jumlasidagi "yana" avval ham shunday holat bo'lganini presuppozitsiya qiladi; "Xona biroz sovuq bo'lib qoldi" gapi esa "derazani yoping" mazmunidagi implikaturani hosil qilishi mumkin.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, o'zbek tilida pragmatik birliklarning presuppozitsiya va implikatura bilan bog'liq vazifalari alohida tizim sifatida yetarlicha yoritilmagan. Mavjud tadqiqotlarda kontekst, nutqiy akt, adresant-adresat munosabati va kommunikativ niyat masalalari ko'rib chiqilgan bo'lsa-da, "axir", "ham", "shekilli", "balki", "mayli", "bir", "demak" kabi birliklarning yashirin ma'no ishlab chiqarish mexanizmi maxsus tahlilni talab qiladi [1;38–47-b.].

Tadqiqotning maqsadi o'zbek muloqot diskursida pragmatik birliklarning presuppozitsiya va implykatura hosil qilish usullarini aniqlashdan iborat. Tadqiqot obyekti o'zbek muloqotida faol qo'llanadigan pragmatik birliklar; predmeti ularning avvaldan nazarda tutilgan va kontekst orqali anglanadigan ma'nolarni shakllantirish imkoniyatidir. Ilmiy yangilik birliklarni oddiy modal yoki bog'lovchi unsur sifatida emas, balki kommunikativ niyatni boshqaruvchi diskursiv vosita sifatida talqin qilishda namoyon bo'ladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. O'zbek tilshunosligida pragmatik ma'no masalalari Sh.Safarov, M.Hakimov, N.Mahmudov, R.Qo'ng'urov va boshqa olimlar tadqiqotlarida muhim o'rin tutadi. Sh. Safarov pragmatik ma'noni nutq vaziyati, adresant va adresat munosabati bilan bog'lab tushuntiradi [1;42–45-b.]. M.Hakimov esa lisoniy birlikning real muloqotdagi funksiyasi, kontekst va nutqiy aktni o'zbek pragmalingvistikasi uchun asosiy mezon sifatida belgilaydi [2;24–33-b.].

Presuppozitsiya gapda ochiq aytilmagan, lekin muloqot ishtirokchilari tomonidan mavjud deb qabul qilinadigan axborotdir. "U ham keldi" jumlasida "ham" boshqa shaxsning kelgani haqidagi oldingi axborotni taxmin qiladi. Implikatura esa aytilgan gapdan tashqarida, kontekst va umumiy bilim asosida chiqariladigan ma'nodir. G.Grice nazariyasiga ko'ra, suhbatdoshlar ko'pincha literal mazmun bilan cheklanmay, kooperatsiya tamoyiliga tayangan holda qo'shimcha ma'no chiqaradilar [9;41–58 p.].

J.Austin va J.Searle nutqiy akt nazariyasi orqali gapning harakat bajarish xususiyatini asoslagan [6; 94–108 p.], [7;22–34 p.]. Levinson va Yule qarashlarida esa kontekst, ijtimoiy masofa va inferensiya pragmatik ma'no hosil qilishning asosiy omillari sifatida talqin qilinadi [9;54–71 p.], [10;35–49 p.].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot deskriptiv, kontekstual, diskursiv-pragmatik va qiyosiy tahlil metodlariga tayandi. Material sifatida o‘zbek kundalik muloqotidan tuzilgan mikrodialoglar, badiiy nutqdagi murojaat va baholash birliklari hamda ommaviy nutqda uchraydigan pragmatik vositalar tanlandi. Tahlil jarayonida avval presuppozitsiya beruvchi birliklar (“yana”, “ham”, “axir”, “hatto”, “endi”), so‘ng implykatura hosil qiluvchi birliklar (“shekilli”, “balki”, “mayli”, “bir”, “qani”) ajratilib, ularning vaziyat, nutqiy odob va kommunikativ niyat bilan bog‘liqligi izohlandi.

Tahlil va natijalar. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek tilida presuppozitsiya ko‘pincha leksik ko‘rsatkichlar orqali yuzaga chiqadi. “Yana keldingizmi?” jumlasida avval ham kelish holati bo‘lganligi taxmin qilinadi. “U ham rozi bo‘ldi” gapida boshqa bir shaxsning roziligi oldindan mavjud axborot sifatida qabul qilinadi. “Axir men aytgandim-ku” jumlasida esa “axir” ilgari aytilgan fikr borligini eslatib, adresatni javobgarlik holatiga qo‘yadi. Demak, presuppozitsiya diskurs xotirasini faollashtiradi.

Implikatura esa aytilgan gap bilan nazarda tutilgan ma’no o‘rtasidagi masofada paydo bo‘ladi. “Xona dim bo‘lib ketdi” jumlasi yuzaki jihatdan xonaning holatini bildiradi, ammo real vaziyatda “derazani oching” yoki “shamollatish kerak” degan bilvosita iltimosni anglatadi. “Vaqt ham kech bo‘lib qoldi” gapi suhbatni yakunlash, mehmonlarni kuzatish yoki ishni to‘xtatish ma’nosini berishi mumkin.

O‘zbek muloqotida implikatura ko‘pincha odob strategiyasi bilan bog‘lanadi. Bevosita buyruq o‘rniga “Shu ishni bir ko‘rib chiqarsiz” deyish iltimosni yumshatadi; “Balki, keyinroq gaplasharmiz” jumlasi esa rad javobini keskinlashtirmasdan ifodalaydi. Shunday qilib, bitta birlik turli vaziyatda turlicha pragmatik natija beradi.

1-jadval

Pragmatik birliklarning yashirin ma’no hosil qilishdagi vazifalari

Birlik	Nutq namunasi	Presuppozitsiya	Implikatura
yana	Yana kech qoldingizmi?	Holat oldin ham takrorlangan	Tanbeh
ham	U ham rozi bo‘ldi	Boshqa rozilik mavjud	Fikr kuchayadi
axir	Axir aytgandim-ku	Oldin fikr bildirilgan	Da’vo/eslatish
shekilli	U xafa bo‘ldi shekilli	Xafalik belgisi bor	Ehtiyotkor baho
bir	Bir ko‘rib chiqing	Ish bajarilishi kutiladi	Yumshoq iltimos

Jadvaldan ko‘rinadiki, pragmatik birliklarning ma’nosi alohida so‘z sifatida emas, balki diskursdagi vazifasi orqali aniqlanadi. “Shekilli” ehtimollikni bildiradi, lekin ayni paytda fikrni keskin aytmaslik, bahoni yumshatish va kommunikativ xavfni kamaytirish vazifasini ham bajaradi. “Bir” unsuri esa miqdorni emas, iltimosni muloyimlashtirishni anglatadi.

Presuppozitsiya va implikatura o‘zaro yaqin, lekin farqli hodisalardir. Presuppozitsiyada ma’no gapning ichki tuzilishi orqali oldindan mavjud deb beriladi: “U chekishni tashladi” jumlasi ilgari chekish odati bo‘lganini bildiradi. Implikaturada esa yashirin ma’no vaziyatdan chiqariladi: “Bu yerda havo og‘ir ekan” jumlasi “derazani oching” mazmunini kontekst orqali bildiradi. Natijalar asosida uch mexanizm ajratildi: leksik-semantik, kontekstual-inferensial va etnomadaniy mexanizmlar.

Xulosa va takliflar. O‘zbek muloqot diskursida pragmatik birliklar presuppozitsiya va implikatura hosil qilishning muhim vositasidir. Presuppozitsiya avvaldan ma’lum deb qabul qilinadigan axborotni yuzaga chiqaradi, implikatura esa bevosita aytilmagan, lekin vaziyat orqali anglanadigan ma’noni shakllantiradi. Tadqiqot natijasida “yana”, “ham”, “axir” birliklari presuppozitsion ma’no, “shekilli”, “balki”, “mayli”, “bir” birliklari esa implikaturaviy talqin hosil qilishda faol ekanligi aniqlandi. Kelgusida ushbu birliklarni korpus materiallari asosida chastota, janr va kontekst mezonlari bo‘yicha o‘rganish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Safarov Sh. Pragmalingvistika. Toshkent, “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2008, 286-bet.

(2). Hakimov M. O‘zbek pragmalingvistikasi asoslari. Toshkent, “Akademnashr”, 2013, 176-bet.

(3). Mahmudov N. Til va madaniyat. Toshkent, “O‘zbekiston”, 1992, 96-bet.

(4). Qo‘ng‘urov R., Begmatov E., Tojiyev Y. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1992, 160-bet.

(5). Mirtojiyev M. O‘zbek tili semasiologiyasi. Toshkent, “Mumtoz so‘z”, 2010, 288-bet.

(6). Austin J.L. How to Do Things with Words. Oxford: Oxford University Press, 1962, 168 p.

(7). Searle J.R. Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. Cambridge, Cambridge University Press, 1969, 203 p.

(8). Grice H.P. Logic and Conversation. Syntax and Semantics. Vol. 3, Speech Acts. New York, Academic Press, 1975, p. 41–58.

(9). Levinson S.C. Pragmatics. Cambridge, Cambridge University Press, 1983, 420 p.